

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**

**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**“БОШЛАНГИЧ СИНФ ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИНИНГ УЗВИЙЛИГИНИ  
ТАЪМИНЛАШДА ИННОВАЦИОН  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ”**

**МАВЗУСИДА РЕСПУБЛИКА МИҚЁСИДАГИ  
ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ**

# **МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2020 йил 29 апрел**

**БУХОРО - 2020**

### Илмий анжуманнинг дастурий қўмитаси

- О. Х.Хамидов – Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис.  
О.С.Қаххоров – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.  
Ў.У. Рашидов – молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо.  
Қ.Р.Тўхсонов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо.  
Ю.Ю.Азимов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.  
Н.О. Сафарова – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо.  
А.Р.Ҳамроев – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.  
Ю.А. Пулотова – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, котиб.

### Илмий анжуманнинг ташкилий қўмитаси

- О.С.Қаххоров – Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.  
Қ.Р.Тўхсонов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини.  
Г.Т. Зарипов – ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо.  
Ю.Ю.Азимов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.  
Н.О. Сафарова – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо.  
А.Р.Ҳамроев – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.  
Ф.М.Қосимов – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.  
Ғ.М.Сайфуллаев – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.  
Н.Б.Адилова – бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо.  
Р.А.Қўлдошев – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.  
Р.Х.Жумаев – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.

Тўплам Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2020 йил 13 февралдаги “Вазирлик тизимидаги олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасаларида 2020 йилда ўтказиладиган илмий ва илмий-техник анжуманлар режасини тасдиқлаш тўғрисида”ги 116- сонли буйруғи ижросини таъминлаш мақсадида 2020 йил 29 апрель куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида “**Бошланғич синф она тили таълимининг узвийлигини таъминлашда инновацион технологиялардан фойдаланиш**” мавзусидаги илмий-амалий онлайн конференция материаллари асосида тузилди.

Тўпламга киритилган мақола ва тезислар мазмуни, илмийлиги ва далилларнинг ҳаққонийлиги учун муаллифлар масъулдирлар.

#### Масъул муҳаррир:

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари номзоди, доцент

#### Такризчилар:

Б.Р.Адилов, педагогика фанлари доктори, профессор

Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент



nutq ko`nikmalarini egallashga masala yechish bilan bog`liq holda olib boriladigan ishlar, ayniqsa, masala tuzishga o`rgatish mashqlari samarali ta`sir ko`rsatadi. Masala o`qib eshittirilgandan so`ng o`quvchilar uning asosiy mazmunini eshitib idrok etishga, to`g`ri, qisqa va aniq aytib berishga o`rgatiladi. Masala tuzishga o`rgatish esa mantiqiy izchil, muhokama elementlari bilan kichik hikoya tuzish imkoniyatini beradi. Bu mashq o`quvchidan aktivlikni, mustaqillikni talab etadi, bolaning bilish aktivligi va mustaqilligini oshirish esa uning umumiy rivojlanishida va tarbiyaviy maqsadda juda muhimdir. Masala tuzish kichik hikoya tuzishdir. Masalaning hikoyadan farqi shundaki, unda nimadir noma`lum bo`lib, uni topish uchun ma`lum so`roqqa javob berish talab etiladi. O`quvchi rasm asosida "Daraxtga uchta chumchuq qo`ngan edi, yana ikkita chumchuq uchib kelib qo`ndi. Daraxtda nechta chumchuq bo`ldi?" masalani tuzadi. Bu masalani yechishda o`quvchilar daraxtdagi chumchuqlar sonini bilish uchun nima qilish kerakligini o`ylaydilar, muhokama qiladilar. Masalani yechish uchun aniq izchilikda muhokama yuritish va tushuntirish bilan bolalar o`z fikrlarini matematika tilida aniq va bog`lanishli bayon etishga o`rganadilar. Shunday qilib, matematika darslarida o`qituvchi bolalar lug`atini boyitish, turli xil gap, bog`lanishli nutq va bayon, muhokama elementi mavjud bo`lgan hikoya tuzish ustida ishlaydi. O`qituvchi matematika tili xususiyatlarini o`zlashtirishga ko`maklashish bilan bog`liq holda o`quvchilar tafakkurini, nutqini o`stiradi. O`qituvchi matematik mazmunga emas, balki shu mazmuni bolalar nutqida to`g`ri shakllantirishga ham e`tibor bersa, bu darslarda o`quvchilar egallaydigan bilim haqiqiy, ular nutqining o`shishi uchun samarali vosita bo`ladi. Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartini ongli takrorlash, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masalani yechish yo`lini tushuntirish ko`nikmasi ustida ishlash o`quvchilarda qayta hikoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini o`stiradi.

### **BOSHLANG`ICH SINIF TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA "TABIAT VA INSON SALOMATLIGI" MAVZUSINI O`TISHDA O`QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH**

*G`M.Sayfullayev, BuxDU dotsenti*

*L.X. Alimova, BuxDU o`qituvchisi*

*O`. Olloqova, BuxDU magistri*

*Ushbu maqolada tabiatshunoslik fanidan darsning uchinchi sinfida "Tabiat va inson salomatligi" mavzusini o`tkazish metodikasi tasvirlangan.*

**Kalit so`z:** *miya, tishlar, til, ikkinchi signalizatsiya tizimi, nutq.*

*В данной статье описывается методика проведения темы «Природа и здоровье человека» в третьем классе урока естествознания.*

**Ключевое слово:** *мозг, зубы, язык, вторая сигнальная система, речь.*

*В данной статье описывается методика проведения темы "Nature and human health" in the third grade of the lesson natural science.*

**Key words:** *Brain, teeth, tongue, second signal system, speech.*

Odamning yuksak hayvonlardan asosiy farqi unda og`zaki va yozma nutqning rivojlanganligidir. Nutq qitiqlagich sifatida sezgi organlari orqali qabul qilinib shartli refleklar hosil qilish xossasiga ega.

Odamning gapirish xususiyati taxminan 500 ming yil ilgari paydo bo`la boshlagan. Ibtidoiy ajdodlarimiz yashab, o`zini himoya qilish uchun oldingi oyoqlaridan qo`l sifatida



foydalana boshlab, ularning gavdasi vertikal holatda yurishga o'ta boshlagan. Shundan so'ng ularda bir-biri bilan so'z orqali munosabatda bo'lish zarurati tug'ilgan. Bu esa ularda lab, til, hiqildoq kabi organlarning tuzilishi va funksiyasi o'zgarishiga sabab bo'lgan. Astasekin gapirish xususiyati paydo bo'lgan. Nutqning rivojlanishi esa odamlarning bir-biriga munosabatini osonlashtirib, mehnat turlari yanada ko'payishiga, ong rivojlanishiga sabab bo'ldi. I.P.Pavlov "Nutq bizni odam qildi", degan edi[3].

Og'zaki va yozma nutq bosh miya po'stlog'idagi nerv markazlarida shartli reflekslar hosil qilish xossasiga ega. Nutq yordamida bilim olamiz, kasb va hunar o'rganamiz. Nutq va fikrlash bir-biriga chambarchas bog'liq, chunki boshqalar nutqni qabul qilib, uning ma'nosiga qarab bizda fikrlash vujudga keladi, o'z fikrimizni esa nutq orqali bayon etamiz.

Nutq ikkinchi signal tizimi sifatida bolaning yoshligida birinchi signal tizimi asosida paydo bo'lib rivojlana boshlaydi. Bola bir yoshga kirganda u 5-10 ta so'zni ayta oladi, 2 yoshda ularning so'z boyligi 300 taga, 3 yoshda 1000 taga, 4 yoshda 2000 taga yetadi. Bolaning so'z boyligi uning sog'ligiga, ota-onasi va o'qituvchilarning madaniyatiga, ular olib boradigan tarbiyaviy ishlar mazmuniga bog'liq.

Odamning nutqi tarbiya, o'qish, bilim olish jarayonida rivojlanadi. Nutqning rivojlanishida ovoz chiqarib o'qish, sher aytish, qo'shiq kuylash, musiqa tinglash muhim rol o'ynaydi. Nutqning rivojlanishi, o'z navbatida, odamning o'qishi, bilim olishi, hunar o'rganishiga, fikrlash qobiliyati va ijodiy ravnaqi yanada takomillashuviga imkon beradi.

Bosh miya bosh suyagining ichida joylashgan bo'lib, og'irligi katta odamda 1020-1970g gacha bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bosh miyaning katta kichikligi odamning aqliy, ish faoliyatini belgilamaydi.

Odamning aqliy faoloyati bosh miya katta yarim sharlarining po'stloq qismida joylashgan nerv hujayralarining murakkab fiziologik, biokimiyoviy va biofizik xususiyatlariga bog'liq. Shuningdek odam aqliy faoliyatining rivojlanishi uning yoshlikdan tarbiyasi, bilim olishi, mashq qilishiga bog'liq. Bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ida o'qish zonolari joylashgan.

Tishlar ikki xil bo'ladi: sut tishlari-20 ta, doimiy tishlar - 32 ta, sut tishlari bolaning olti oylikidan ikki yoshigacha chiqadi. Bola olti yoshligidan to'g'ri ikki yoshgacha sut tishlari tushib, ularning o'rniga doimiy tishlar chiqadi. Doimiy tishlar soni 32 ta bo'lib, yuqori va pastki jag'da 16 tadan jag'larning o'ng va chap tomonida 8 tadan bo'ladi. Shulardan oldingi ikkitasi kurak, bittasi qoziq, ikkitasi kichik oziq tish va 3 tasi katta oziq tishlardir. Doimiy tishlarning 28 tasi 12-14 yoshgacha chiqadi. 4 tasi, ya'ni yuqori va pastki jag'lardagi oxirgi katta oziq tishlar (aql tishlar) 18 yoshdan keyin chiqadi. Tish 3 qismdan iborat: tish toji (koronka), bo'yni va ildizi, tishning ko'rinib turgan tashqiy qismi koronka deb atalib, u oq emal moddasi bilan qoplangan.

Bu modda tishga qattqlik xususiyatini beradi. Tishning milk bilan birikkan joyi uning bo'yin qismi deb ataladi. Tishning ildiz qismi jag' suyaklariga birikkan bo'ladi. Tishlarning sog'lom bo'lishi nutqning ravon bo'lishi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda ham muhim ahamiyatiga ega. Tishni sog'lom saqlash uchun har kuni uxlash oldidan tish pastasi bilan tozalash lozim.

Til og'iz boshlig'ida joylashgan, muskuldan tashkil topgan organ bo'lib u ovqatni aralashtirib, tomoq tomonga o'tkazish va uning ta'mini aniqlash vazifasini bajaradi. Tilning eng muhim vazifalaridan biri so'zlarning ravon talaffuz qilinishini ta'minlashdir. Bolalarda tug'ma og'iz bo'shlig'idagi pardalar yopiq holda bo'ladi, bu bolalarni so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishiga sababchi bo'ladi. Bolalarni yoshligidan bu pardalarni kestirish so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga olib keladi.



3-sinfda [1] tabiat va inson salomatligi mavzusini o'tish jarayonida o'qituvchi yuqorida qayd etilganlarni inobatga olib, ushbu mavzuni yangi pedagogik texnologiya asosida odamning tuzilishi: odam tanasi, odam terisi, odam skeleti, yurak va uning vazifasi, tanada qonning harakati, odam miyasi, ovqat qanday hazm qilinishi, sog'lom bo'lay desangiz mavzularida o'quvchilarga tushunchalar beradi.

Tabiatshunoslik fanini o'qitishda o'quvchilarning ilmiy-tabiiy dunyo qarashlarini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishda, har bir dars mavzusini bayon qilishga e'tibor beriladi [2].

Maqolaning maqsadi o'quvchilarda odam tanasining tuzilishi va salomatligini aniqlashga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, kengaytirish hamda bolalar nutq malakalarini rivojlantirishdan iborat.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. A.Baxromov "Tabiatshunoslik" umum o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. Cho'lpon nashriyoti. Toshkent 2014 yil.
2. A.Baxromov, M.Xolxo'jayev. "Tabiatshunoslik" o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Cho'lpon nashriyoti. Toshkent 2008 yil.
3. U.Z.Qodirov, Odamfiziologiyasi. Ibn Sino nashriyoti. Toshkent 1996.

### **TOPISHMOQLAR ORQALI O'QUVCHILARNING FIKRLASHINI VA NUTQINI RIVOJLANTIRISH**

*U.S.Amonov, BuxDUkatta o'qituvchisi*

*R.R.Tohirova, Buxoro shahar 35-maktab o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada topishmoqlar orqali o'quvchilarning fikrlashini va nutqini rivojlantirish*

*haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *nutq, so'z, sinf, topishmoq*

*В этой статье развивайте мышление и речь читателя с помощью головоломок.*

**Ключевые слова:** *речь, слово, класс, головоломка*

*In this article, develop the thinking and speech of the reader using puzzles.*

**Keywords:** *speech, word, class, puzzle*

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon etishga, gapni to'g'ri qurishga, har bir so'zni o'rinni qo'llay olishga asta-sekin o'rgatila boriladi. Buning uchun ularga har bir so'z turkumi haqida tushunchalar berila boshlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z turkumlari haqida bilishi ona tili darslarining asosi hisoblanadi. Bu ish o'quv-biluv jarayonida amalga oshirib boriladi. Bunda o'quv-biluv jarayonining samaradorlik darajasi nafaqat o'quvchining bilimlarni yaxshi o'zlashtirishi, balki uning o'z nutqini to'g'ri shakllantira olishi holatiga ham bog'liq. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili bo'yicha bilimlarni shakllantirishning, ularda bog'lanishli nutqni rivojlantirishning pedagogik asoslari va bu ishni xalq og'zaki ijodining eng keng tarqalgan ixcham va qiziqarli janri – topishmoqlar vositasida tashkil etishning samarali usullari mavzusi o'z echimini kutayotgan dolzarb muammo hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf, xususan, birinchi sinf o'quvchilarining og'zaki bog'lanishli nutqqa ega bo'lishi, matn mazmuni asosida tuzilgan savollarga javob bera olishi, o'qiganlariga o'z munosabatini bildirishi, o'qituvchi savoli yoki darslikda berilgan rasm asosida matn





Ўزбекистон Республикаси  
Олий ва Орта Маълум  
Йеттилик Вазирлиги



BUKORO  
DAVLAT  
UNIVERSITETI



Ўزбекистон Республикаси  
Иноватсион  
Технология Вазирлиги

**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI TA'LIMINING  
UZVIYLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION  
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ONLAYN  
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI ISHTIROKCHISI**

**Sayfullayev G'.M.**

**SERTIFIKAT**  
BILAN TAQDIRLANADI

**BUKORO DAVLAT  
UNIVERSITETI REKTORI**



**O.X.XAMIDOV**

**29-aprel 2020-yil**